



Eksport , import operatsiyalari hisobi va auditi

**Misirov Asliddin
Mamasobirovich**

*Samarqand Iqtisodiyot va servis instituti
"Buxgalteriya hisobi" kafedrası, stajor
assistenti.*

**Abduraxmonova Mashhura
Yo'ldosheva Aziza**

*SamISI Buxgalteriya hisobi va menejment
fakulteti 2-kurs BH-524-guruh talabalari.*

Аннотация

Ushbu maqolada eksport va import operatsiyalarining mazmuni, ularni tashkil etish jarayonlari hamda buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibi yoritilgan. Tashqi iqtisodiy faoliyatda qo'llaniladigan kontraktlar, valyuta operatsiyalari, bojxona rasmiylashtiruvi, soliq to'lovlari ahamiyati batafsil ko'rib chiqiladi. Shuningdek, eksport-import operatsiyalarini audit qilishda hujjatlarning to'g'riligi, kurs farqlari, tovar qiymati, tushumlarning o'z vaqtida kelib tushishi va xarajatlarning asoslanganligini tekshirishga alohida e'tibor qaratiladi. Maqola tashqi savdo faoliyatida moliyaviy shaffoflikni ta'minlash, risklarni kamaytirish va hisob yuritishni takomillashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar beradi.

Kalit so'zlar:

eksport, import, globallashuv, taraqqiyot, tashqi savdo, buxgalteriya hisobi, audit, savdo-sotiq, litsenziya, valyuta operatsiyalari, bojxona rasmiylashtiruvi, moliyaviy nazorat.

Аннотация: В данной статье освещены сущность экспортно-импортных операций, порядок их организации и отражения в бухгалтерском учете. Подробно рассматривается значение контрактов, валютных операций, таможенного оформления, налоговых платежей и правил Incoterms в внешнеэкономической деятельности. Также уделяется внимание аудиту экспортно-импортных операций, проверке правильности документов, курсовых разниц, стоимости товаров, своевременности поступления выручки и обоснованности расходов. Статья содержит практические рекомендации по обеспечению финансовой прозрачности, снижению рисков и совершенствованию ведения учета во внешней торговле.

Xorijiy savdo — ya'ni eksport va import — bugungi globallashgan iqtisodiyotda har qanday mamlakat iqtisodiyoti uchun muhim omildir. Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasi misolida, uning tashqi savdo aylanmasi mamlakatning iqtisodiy

salohiyati, valyuta daromadlari, ichki ishlab chiqarish va global bozorga integratsiyasida muhim rol o'ynaydi.

Globallashuv jarayonlarining kengayishi jahon mamlakatlari o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarning yanada takomillashuviga olib keladi. Hozirgi davrda dunyo mamlakatlari ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti o'zining ma'no-mazmuni jihatidan oldingi bosqichlardan keskin farq qiladi. Bunda eng asosiy va muhim jihat - milliy iqtisodiyotlarning tobora integratsiyalashuvi va globallashuvining kuchayib borishidir. Ayni paytda bu jarayonlar xalqaro maydondagi raqobatning ham keskinlashuviga, har bir mamlakatning xalqaro mehnat taqsimotidagi o'z mavqeini mustahkamlash uchun kurashining kuchayishiga ham ta'sir ko'rsatadi. Prezident Sh.Mirziyoev ta'kidlaganlaridek "barqaror iqtisodiy o'sishning eng muhim garovi -raqobatdosh mahsulotlar ishlab chiqarish, ular uchun yangi xalqaro bozorlar topish va eksportni ko'paytirish, tranzit salohiyatidan to'liq foydalanish hisoblanadi... Yana bir muhim masalaga e'tiboringizni qaratmoqchiman. Aholi daromadlarini oshirish, qo'shimcha ish o'rinlari yaratish, mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirish uchun bizga yangi-yangi bozorlar kerak. Uning uchun bozor iqtisodiyoti va davr talablariga mos ko'plab qonun va qarorlarni qabul qilyapmiz.". Shu bilan birga, importning eksportdan yuqori bo'lishi tashqi savdo balansining salbiy shakllanishiga sabab bo'layotgani iqtisodiy tahlilda alohida e'tibor talab qiladi. Tashqi savdo operatsiyalarini to'g'ri qayd qilish, hujjatlashtirish va moliyaviy hisobotlarda aniq aks ettirish korxonalar hamda davlat uchun strategik ahamiyatga ega bo'lib, buxgalteriya hisobi, bojxona tartib-taomillari va valyuta nazorati talablariga qat'iy rioya etishni talab etadi. Aynan shuning uchun eksport-import operatsiyalarining auditi — nafaqat moliyaviy natijalarni tekshirish, balki operatsiyalarning qonuniyligi, hujjatlarning to'g'riligi, bojxona rasmiylashtiruvi, valyuta operatsiyalari va ichki nazorat tizimlarining holatini baholash orqali xatarlarni kamaytirishga xizmat qiluvchi muhim jarayondir. Auditingning ushbu sohada o'ziga xosligi shundaki, u moliyaviy audit bilan bir qatorda tashqi iqtisodiy faoliyatning normativ-huquqiy, bojxona va valyuta jihatlarini ham qamrab oladi. Eksport-import amaliyotlarining shaffofligi, ishonchliligi va qonunchilik talablariga mosligi mamlakatning xalqaro bozorlar bilan integratsiyasini kuchaytiradi, korxonalar uchun esa barqaror moliyaviy boshqaruv va tizimli hisobot yuritish imkonini yaratadi.

Mamlakatimizda tashqi iqtisodiy aloqlarni rivojlantirish bo'yicha bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Tashqi iqtisodiy faoliyat bu tashqi savdo va boshqa davlatlar, ularning yuridik va jismoniy shaxslari bilan iqtisodiy munosabatlaridir. Ushbu munosabatlarni iqtisodiyotni liberallashtirish sharoitida rivojlantirish, mahsulotlarni eksport qilish, importyorlar bilan hisob-kitoblarni to'g'ri amalga oshirish va ularni buxgalteriya hisobida to'g'ri hisobga olib borish muhim hisoblanadi.

Mamlakatimiz tashqi iqtisodiy faoliyat munosabatlarni iqtisodiyotni liberallashtirish sharoitida rivojlantirish jarayonida, xo'jalik sub'ektlarida eksport va import operatsiyalari bo'yicha yuzaga keladigan hisoblashuv muomalalari hisobini to'g'ri amalga oshirish va ularni buxgalteriya hisobida to'g'ri hisobga olib borishni nazariy va amaliy jihatlarini tadqiq etish dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Eksport-import operatsiyalari buxgalteriya hisobining asosiy maqsadi - foydalanuvchilarni eksport-import operatsiyalariga oid to'liq va ishonchli moliyaviy hamda buxgalteriya axboroti bilan o'z vaqtida ta'minlashdan iborat.

Iqtisodiyotni liberallashtirish sharoitida har qanday tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanuvchi korxonada boshqaruv tizimi eksport-import munosabatlari bo'yicha axborot bilan ta'minlashning tegishli tizimiga ehtiyoj sezadi. Shu sababli, mazkur mavzu bo'yicha axborot to'plash, umumlashtirish va qayta ishlashning eng muhim vositalaridan biri buxgalteriya hisobi va tahlildir. Bundan tashqari, eksport-import muomalalarining holati va harakatini o'z vaqtida hamda to'g'ri hisobga olishi, talgin etishi va ana shu asosda barqaror rivojlana olishi uchun bunday ma'lumotlarni yig'ish va qayta ishlashning samarali tizimiga ega ega bo'lishi kerak.

Eksport-import operatsiyalari bo'yicha buxgalteriya hisobining asosiy vazifalari qo'yidagilardan iborat:

- Korxona faoliyatining eksport-import operatsiyalari bo'yicha sodir bo'layotgan xo'jalik muomalalarini hujatlarda to'g'ri va o'z vaqtida rasmiylashtirish;
- Buxgalteriya hisobi hisobvaraqlarida eksport-import munosabatlarining holati va harakati, bu munosabatlar bo'yicha hisoblashishlar tartibi va ular bo'yicha korxona majburiyatlarining holati to'g'risida to'liq va ishonchli ma'lumotlarni shakllantirish.
- Tashqi iqtisodiy faoliyat sub'ektlarida boshqaruv samaradorligini oshirish uchun eksport-import muomalalariga oid buxgalteriya hisobi ma'lumotlarini umumlashtirish va bu ma'lumotlar asosida boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish.
- Eksport-import muomalalarining holati va harakatini moliyaviy hisobotlarda o'z vaqtida aks ettirish va tegishli organlarga taqdim etish

Xulosa qilib aytganda, eksport-import operatsiyalari hisobi va auditi O'zbekistonning tashqi savdo tizimini samarali boshqarish, iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash va xalqaro bozorlarda barqaror ishtirok etish uchun muhim ahamiyatga ega. Tashqi savdo aylanmasining yildan-yilga ortib borishi, savdo hamkorlari geografiyasining kengayishi hamda valyuta operatsiyalarining murakkablashuvi ushbu jarayonlarda hisob-kitobning aniq yuritilishi va audit nazoratining kuchaytirilishini talab etadi. Eksport va import bo'yicha hujjatlarning to'g'ri rasmiylashtirilishi, bojxona talablariga rioya etilishi, valyuta operatsiyalarining qonuniyligi, hamda korxonalarining ichki nazorat tizimlarining samaradorligi tashqi iqtisodiy faoliyatning shaffofligini ta'minlaydi. Shu bilan birga, audit jarayonlarining sifatli amalga oshirilishi moliyaviy xatoliklar va qonunbuzarliklarning oldini oladi, korxonalar va davlat organlari o'rtasida ishonchli axborot almashinuvi shakllanishiga xizmat qiladi.

Tadqiqot va tahlillar asosida quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin: birinchidan, eksport-import operatsiyalarini yurituvchi korxonalarda ichki audit va nazorat tizimlarini yanada kuchaytirish, xususan elektron hujjatlashtirish, avtomatlashtirilgan hisob dasturlaridan foydalanishni kengaytirish zarur. Ikkinchidan, tashqi savdo, bojxona va valyuta qonunchiligi bo'yicha xodimlar malakasini oshirish, ularga amaliy treninglar va xalqaro standartlar asosida o'quv kurslarini tashkil etish maqsadga muvofiq. Uchinchidan, eksport-import operatsiyalari bo'yicha hisobotlarning xalqaro standartlar — IFRS va ISA talablariga moslashtirilishi, auditni zamonaviy usullar asosida o'tkazish samaradorlikni oshiradi. To'rtinchidan, davlat

darajasida bojxona jarayonlarini yanada soddalashtirish, elektron bojxona tizimlarini takomillashtirish va real vaqt rejimida monitoring tizimlarini rivojlantirish tashqi savdoda shaffoflikni kuchaytiradi. Beshinchidan, korxonalar uchun eksport faoliyatini rag'batlantiruvchi mexanizmlarni kengaytirish, logistika infratuzilmasini rivojlantirish va tashqi bozorlarga chiqish strategiyalarini qo'llab-quvvatlash ham tashqi iqtisodiy faoliyatning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Ushbu takliflarning amaliyotga joriy etilishi eksport-import operatsiyalarining yanada aniq, tizimli va shaffof yuritilishiga, korxonalar moliyaviy barqarorligining mustahkamlanishiga hamda O'zbekistonning global iqtisodiy makondagi o'rnining yanada kuchayishiga imkon yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. PQ-4611-son "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. 2020 yil 24 fevral;

2. O'zbekiston Respublikasi "Buxgalteriya hisobi to'g'risida" gi Qonuni, Yangi taxriri. 2016 yil 13 aprel;

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 07.05.2020 yildagi PQ-4707-son "Eksport faoliyatini yanada qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida".

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 24.08.2022 y. PF-198-son "Mulk huquqining daxlsizligini ishonchli himoya qilish, mulkiy munosabatlarga asossiz aralashuvga yo'l qo'ymaslik, xususiyl mulkning kapitallashuv darajasini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni;

5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 30.01.2020 yildagi 46-son "O'ZBEKINVEST" eksport-import milliy sug'urta kompaniyasining faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida";

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son 2022-2026-yillarda mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"

7. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutq /Sh.M. Mirziyoev.-Toshkent: O'zbekiston, 2017.- 56 b;